

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT ARHITEKTURA QURILISH INSTITUTI

BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI FAKULTETI

“QURILISH TEXNOLOGIYASI VA TASHKILIYOTI” KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

“ _____ dots. Ibragimov I.U.
_____ ” _____ 2015 y.

DIPLOM LOYIHASI BO‘YICHA

T U S h U N T I R I S h X A T I

Diplom loyihasining mavzusi: **Samarqand shaxrida joylashgan temir beton buyumlari zavodini bosh binosi va 120 o‘rinli mamuriy mayishi binosi qurilishining ishlarni bajarish loyxasi**

Bitiruvchi 9-11BIQ guruh talabasi:

Nutfullaev Shuhrat

Kafedra mudiri:

dots. I.T.Aliev

Diplom loyihasi rahbari:

I.Salimova

Maslahatchilar:

J.Boltayev

S.Sulaymanov

X.I.Yusupov

A.T.Ilyasov

Toshkent – 2015yil

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI FAKULTETI

“QURILISH TEXNOLOGIYASI VA TASHKILIYOTI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASI BO‘YICHA
T O P Sh I R I Q

Tasdiqlayman:
Kafedra mudiri
_____ dots. I.T.Aliev

Nutfullaev Shuhrat
(talabaning familiyasi, ismi-sharifi)

1. Diplom loyihasining mavzusi Samarqand shaxrida joylashgan temir beton buyumlari zavodini bosh binosi va 120 o‘rinli mamuriy mayishi binosi qurilishining ishlarni bajarish loyxasi

Institut bo‘yicha 20____ yil “____” _____ dagi _____ - son buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma’lumotlar: Bino plani, qirqimlari, uzellari, konstruktiv hisoblash, qurilish jarayonlari uchun texnologik xarita, kalendar reja, qurilish bosh plani

3. Tushuntirish xatida keltiriladigan ma’lumotlar:

a) Arxitektura-qurilish qismi: Umumiy ma’lumotlar, bosh reja, bosh reja texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlari, binoning hajmiy rejaviy hal qilinishi hamda texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlari, bino tuzilmalari, poydevorlar, devorlar, pardadevorlar, orayopma va tomyopmalar, tom tuzilmalari, derazalar va eshiklar, pollar, otmoskalar, bino tashqi va ichki qismi pardozi, muxandislik jixozlari, seysmik chora tadbirlari,

b) Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi qismi: Texnologik kartaning qo‘llanish ko‘lami, devor va pardadevorlarni suvash ishlari tarkibi, suvash ishlarida qo‘llaniladigan asboblari va moslamalar, delyanka o‘lchami va ularning soni, ish olib borishga ko‘rsatmalar, suvash ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi, suvash ishlari uchun texnik -iqtisodiy ko‘rsatkichlar, Mexnat sarfi va ish xaqi kal’kulyatsiyasi jadvali, Ishni bajarish grafigi jadvali

v) Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish qismi: Umumiy ma’lumotlar, Yig‘ma tuzilmalar jadvali, Ishlarning mehnat sarfi, mashina – smenalarga talabi hisobi va kalendar grafikning ko‘rsatkichlarni aniqlash jadvali, qurilish mashinalarni va kichik mexanizmlarga ehtiyojni aniqlash, Asosiy qurilish materiallari va yarim fabrikatlarga ehtiyojlik jadvali, qurilish bosh rejasini hisoblash.

g)

d) Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qismi: ximoya qurilmalari, baxtsiz xodisani tekshirish va xisobga olish, shikastlanish sabablari, ishlab chiqarish joyidagi yoritilish tizimini tanlash, ventilyatsiya tizimini tanlash, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, o'tga qarshi suv ta'minoti, aloqa, yong'in signalizatsiya, individual ximoya vositalari, qurilish mashinalari havfsizligi.

e) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati: Tushuntirish xatining oxirida keltirilgan.

4. Diplom loyihasining chizmalari ro'yxati:

a) Arxitektura-qurilish chizmalari: bino fasadi, bosh plan, qavatlar plani, xonalar tasnifi, qirqimlar, tugunlar

b) Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi chizmalari: Devor va pardadevorlarni suvash uchun texnologik xarita, mehnat sarfi va ish haqi jadvali, texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar

v) Qurilishni tashkil etish va rejalashtiri bo'yicha chizmalari: Kalendar reja, ishchilarning xarakatlanish grafigi, qurilish bosh plani

5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha maslihatchilar:

№	Diplom loyihasining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining F.I.Sh.
1.	Arxitektura-qurilish qismi				U.Yusupov
2.	Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi				X.I.Yusupov
3.	Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish qismi				A.T.Ilyasov
4.	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qismi				S.Sulaymanov
5					

6. Topshiriq berilgan sana _____

7. Tugallangan diplom loyihasining topshirish sanasi _____

Diplom loyixasi raxbari _____(imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi _____(imzo)

Kafedra mudiri _____(imzo)

MUNDARIJA

KIRISH	5
1. ARXITEKTURA QURILISH QISMI	10
2. HISOB-KONSTRUKTIV QISMI	30
3. QURILISH ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI VA UNI TASHKIL ETISH QISMI	41
4. QURILISHDA MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI QISMI.....	67
5. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	72

K I R I S H

KIRISH

Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Mustaqillik deb, atalmish ijtimoiy adolat sari intilishning natijasi yurtimizda qaror topdi.

Odamlarimiz qalbi tafakkuri va tasavvurida yarqiragan nur paydo bo'ldi. Erkinlik va e'qinlik, demokratiya va adolat ijtimoiy hayotimizning barcha bo'g'inlarida kurtak ota boshladi. Ana shunday milliy uyg'onish davrida Prezidentimiz I.A.Karimov mustaqillik bilan bog'liq barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar qatorida Respublikamizda bino va inshootlar kapital qurilishiga alohida e'tibor berdilar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, barcha jabhalardagi keng ko'lamli o'zgarishlar zahirida inson va uning manfaatlari, oilalarimiz farovonligi, farzandlarimizning hech kimdan kam bo'lmay o'sishiga erishishdek ezgu maqsadlar mujassam.

Prezidentimiz Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 22-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda 2015-yilni mamlakatimizda Keksalarni e'zozlash yili, deb e'lon qilishi ham inson va uning hayotida bo'lgan g'amxo'rlik va e'tiborning amaldagi namunasi sifatida yurtimiz tarixi zarvaraqlarida muhrlanib qolishi shubhasiz.

Bu qaror yagona elektron ma'lumotlar bazasini yaratgan holda, respublikaning viloyatlari, shaharlari va tumanlari doirasida tizimli yuritilishini ta'minlaydi.

Kapital qurilishning asosiy vazifasi yangi texnika va texnologiya asosida mamlakatimizning ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirishdir.

Mustaqil O'zbekistonda sanoat va fuqaro qurilishi jadalligi yil sayin o'sib bormoqda. Faqat so'nggi yillarda mingdan ortiq oziq-ovqat, sanoat korxonalari, turar-joy binolari, litsey, kollej, namunali uy-joylar va boshqa inshootlar barpo etilmoqda.

Dastur yetti bo'lim va 125 banddan iborat bo'lib, unda bolalar tug'ilishi, ta'lim-tarbiyasi, oilada sog'lom muhitni, uning iqtisodiy va ma'naviy-ahloqiy asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy soha rivojiga ajratilayotgan mablag'lar samaradorligini oshirish bilan bog'liq barcha masalalar aks etgan.

Jumladan ushbu dasturda:

- 2014 yilda namunaviy loyihalar asosida 11 ming yakka tartibdagi uylar qurilishi nazarda tutilgan.
- Davlat dasturida 60,1 mingta o'quv o'ringa mo'ljallangan 380 umumta'lim maktablarini rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash, ularni kompyuter texnikasi, o'quv-laboratoriya jihozlari va boshqa uskunalar bilan ta'minlash belgilangan.

- Bundan tashqari, 161 kasb-hunar kolleji va akademik litsey, 48 bolalar musiqa va san'at maktabi, 110 bolalar sport ob'ektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish va tubdan ta'mirlash rejalashtirilgan.

Uy joy qurilishi va u bilan birgalikda rivojlanadigan infratuzilmalar-kommunal va ijtimoiy sektor, transport va kommunikatsiya tarmoqlari, zamonaviy qurilish materiallari hamda konstruksiyallarini ishlab chiqarish kapital va investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, eng murakkab va jiddiy ijtimoiy masalalardan biri-axoli bandligi muammosini hal etishning g'oyat maqbul va samarali sohasi sifatida xizmat qila oladigan hamda xizmat qilishni lozim bo'lgan yo'nalishga aylanmoqda [2].

2014 yilda qabul qilingan qurilish tashkilotlarini yanada rivojlantirish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston respublikasi Prezidentining qarori Respublika hududlaridagi ixtisoslashtirilgan qurilish-pudrat tashkilotlarining quvvatlari bilan iqtisodiyot sohasi va tarmoqlarida kapital qo'yilmalarni o'zlashtirish hajmlarining o'sib borishi bilan o'zaro bog'liqligini, pudratchi tashkilotlarning ishlab chiqarish-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish hisobiga olib borilayotgan qurilish- montaj ishlarining miqyosi va sifatini tubdan yaxshilash, butun qurilish ishlari tsiklini «kaliti bilan topshirish» usulida bajarishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi [2].

Bu qaror yagona elektron ma'lumotlar bazasini yaratgan holda, respublikaning viloyatlari, shaharlari va tumanlari doirasida tizimli yuritilishini ta'minlaydi.

Kapital qurilishning asosiy vazifasi yangi texnika va texnologiya asosida mamlakatimizning ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirishdir.

Mustaqil O'zbekistonda sanoat va fuqaro qurilishi jadalligi yil sayin o'sib bormoqda. Faqat so'nggi yillarda mingdan ortiq oziq-ovqat, sanoat korxonalari, turar-joy binolari, litsey, kollej, namunali uy-joylar va boshqa inshootlar barpo etilmoqda.

Mamlakatimizda fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi ishchi kadrlar malakasini, umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligini tobora oshishini taqozo etmoqda. Ishchilarning kundalik mehnat faoliyatida aqliy mehnatning roli oshib bormoqda, ularga chizma va sxemalarni o'qishga, texnologik xaritalarni tushunib olishga, o'z ishini rejalashtirishga, uskunalarni sozlash va rostdashga, o'z mehnatini borishi va natijalarini nazorat qilish va tahlil etishga to'g'ri kelmoqda. Ishchi ishlab chiqarish sharoitiga tezda moslasha bilishi, masalalarini mustaqil hal qila olishi hamda o'z ishiga ijodiy yondosha bilishi zarur.

Texnika va texnologiya rivojlanib, mehnat xarakteri o'zgargan sari kasb–hunar kollejlarda ishlab ta'limining mazmuni, shakli va uslubiyatlari ham takomillasha boradi.

Vazirlar maxkamasining qarorini amalga oshirish bo'yicha zarur vazifalardan biri ilmiy–texnikaviy yutuqlar va ilg'or tajribalardan foydalanish, ashyolar va mehnatni tejash orqali kapital qo'yilmalarni samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Qurilish ishlab chiqarishini industrlashtirish darajasini oshirish, yangi ob'ektlarni tezroq ishga tushirishni ta'minlash, amaldagi korxonalarni qayta ta'mirlashni va tezlashtirish shaxsiy uy–joy qurilishini keskin kuchaytirish mo'ljallanmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan qurilishda yirik o'zgarishlar bo'layotgani ko'z o'ngimizda namoyon bo'lmoqda. Poytaxtimiz va boshqa shaharlarda zamonaviy va sharqona uslubda qurilayotgan mehmonxonalar, o'quv muassasalari va boshqa inshootlar buning yorqin dalilidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan iqtisodiyotimizga chet el sarmoyalarining kirib kelishiga keng yo'l ochildi. Bu esa o'z navbatida yangi qurilishlar, rekonstruktsiya va ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Bunga misol qilib, Asakadagi avtomobil korxonasini, Buxorodagi neftni qayta ishlash korxonasini, Toshkent viloyatlaridagi “Kobol tekstayls” qo'shma korxonasi, Sho'rtangaz qo'shma korxonasi va boshqalarni aytish mumkin.

Kelajagi buyuk davlatni qurish, obod va erkin jamiyatni barpo etish barcha sohalarda, shu jumladan, arxitektura va qurilish sohasida ham katta reja hamda islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shuning uchun ham 2003 yil 6 mayda “Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida” e'lon qilingan Prezidentimiz I.A.Karimovning farmoni ayni muddao bo'ldi.

Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tarmoqda bozor iqtisodiyotini tamoyillari va talablarga mos keladigan xo'jalik munosabatlarni keng joriy etish, pudrat, loyiha ishlari va qurilish ashyolarining rivojlangan bozorlarini shakllantirish, qurilishda narx belgilash mexanizmini takomillashtirish loyihalarni amalga oshirishning pirovard natijalari va samaradorligi uchun investitsiya jarayoni barcha qatnashchilarning ma'suliyatini oshirish maqsadida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

“Bizning qudratimizni bilmoqchi bo'lsangiz, biz qurgan imoratlarni ko'ring” degan edi buyuk bobokalonimiz, sohibqiron Amir Temur. Shunday ekan, hozirgi

qurilgan dunyoga mashhur tarixiy obidalarimiz o'tmishimizni buyuk bo'lganligidandir.

“Biz tanglikdan ijtimoiy larzalarsiz, ishlab chiqarishga tayangan holda, moddiy boyliklarni bevosita yaratayotganlarga suyangana holdagina chiqishimiz mumkin. Mahsulot ishlab chiqarayotganlar, yerni ishlayotganlar, bino va inshootlarni qurayotganlar va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini bunyod qilayotganlar bizning tayanchimizdir” (I.A.Karimov. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” kitobida).

Toki, yurtimiz go‘zal, fayzli, erkin va adolatli yurt bo‘lsin. Toki bizdan elga foydali yodgorliklar qolsin, bog‘–rog‘lar qolsin, qalbni yuksaklaydigan ibratli so‘zlar qolsin. Toki bizdan keyin avlodlarga ozod va obod vatan qolsin.

“Bugun yangi o‘zbek davlatini barpo etar ekanmiz tarixdan, ajdodlar merosidan, ularning ruhi pokidan, Turkiston halqlarining qadriyatlaridan, ma’naviy merosdan, san’atidan bahramand bo‘lishimiz tabiiydir. Shuningdek Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat” bo‘lishidan dalolat beradi.

1. ARXITIKTURA- QURILISH QISMI

ARXITIKTURA-QURILISH QISMI

1.Umumiy ma'lumotlar.

1.1. Qurilish tumani iqlimiy va geofizik shartlari.

1-jadval


№	Tavsif nomi	Qiymati va o'lchami	Manbaa
1.	Qurilish joyi	Buxoro	Topshiriqdan
2.	Iqlimiy tumani	2	[6]
3.	Yozning hisobiy harorati	25,1°S	[6]
4.	Eng sovuq kunning o'rtacha harorati	-12 °S-15 °S	[6]
5.	Grunt muzlashining me'yoriy chuqurligi	0,6m	[6]
6.	Qor qoplami og'irligining me'yoriy qiymati	52kg/m ²	[8]
7.	Shamol bosimining me'yoriy qiymati	36kg/m ²	[8]
8.	Qurilish tumani seysmikligi	7ball	[12]
9.	Zamin gruntlari	supes	[6]
10	Grunt osti suvini agressivligi va chuqurligi	Agressiv emas	topshiriqdan

Shamol chambaragi

Shamol esishining hukmron yo'nalishini aniqlash uchun shamol chambaragi chiziladi.

Iyul oyi uchun (Buxoro)

Yo'nalishi	SH	SHSHq	SHq	JSHq	J	JF	F	SHF
Takrorlanuvchanligi	67	7	1	0	0	1	5	19
Tezligi	5,4	4,7	1	-	-	3,6	4,6	5




Shamol chambaragi

Shamol esishining hukmron yo'nalishini aniqlash uchun shamol chambaragi chiziladi.

Yanvar oyi uchun (Buxoro)

Yo'nalishi	SH	SHSHq	SHq	JSHq	J	JF	F	SHF
Takrorlanuvchanligi	22	7	14	18	12	9	5	13
Tezligi	4,5	3,2	2.7	3.7	4.8	5.1	3,7	4,8



Yong'inga qarshi chora-tadbirlar

№	Tavsif nomi	Qiymati va o'lchami	Manbaa
1.	Binoning javobgarlik sinfi	II	[5,bet]
2.	Binoning yong'inbardoshlilik darajasi	II	[5, bet]
3.	Eng uzoqda joylashgan ish joyidan eng yaqindagi evakuatsiya chiqishi	A, B-daraja uchun 35m, V-uchun 70m	[5,bet]
4.	Asosiy qurilish konstruksiyalarining yong'inbardoshlilik chegarasi: -Ustunlar; -Yuk ko'taruvchi devorlar; -To'sinlar va fermalar; -Tom yopma plitalar	2 soat 0.25 soat 0.25 soat 0.25 soat	[5, bet]
5	Evakuatsiya chiqish eshiklarining talab etilgan soni	3	[5]
6	Yongin va portlash bo'yicha xonalarning kategoriyasi -Quvir ishlab chiqarish -Quvirlarni tekshirish bo'limi -Tayyorlash bo'limi -Agregat oqimini ishlab chiqarish -Armatura tayyorlash -Metall ombori	B V V B B B	[5]

Sanitar - gigiyenik talablar

№	Tavfsif nomi	Qiymat o'lchami	manba
1	Inshotning sanitar sinifi	3	[8]
2	Ximoya qatlam qalinligi	300 m	[8]
3	Ishlab chiqarish jarayoning og'irlik darajasi	O'rtacha og'irlik	[8]
4	Qurilish qobilyatiga bog'liq bo'lgan ishlarnig razryadi	5	[7]
5	Qutblar bo'yicha yol qo'yilgan xatolik	Bo'ylama o'qlar bo'yicha meridiandan 45	[5]

6. Sanoat binosining konstruktiv yechimi

Temirbeton buyumlari zavodi binosi to'liq temirbeton karkasdan iborat. Bino bir qavatli va uch oraliqli. Bino oraliqlarining ikkitasi 18 m, chetki va o'rta ustunlar qadami 6 m.

Chetki qator ustunlarini bo'ylama o'qqa bog'lanishi "nolli" qilib qabul qilingan. O'rta qator ustunlari markaziy o'qqa bog'langan. Asosiy yuk ko'taruvchi ustun va yordamchi ustunni o'rnatish uchun yon devordan 500 mm ga siljirilgan.

Bino oralig'ining eni 18 m ikkinchisi xam 18m bo'lib, ularning stropila ostki qismigacha bo'lgan balandligi 10,8 m.

Binoning ko'ndalang yo'nalishdagi ustuvorligini bir va ikki oraliqli ramalar bilan ta'minlanadi. Ushbu ramalar tayanuvchi stoykalar poydevorga mahkamlanadi. Binoning ko'ndalang yo'nalishdagi ustuvorligi poydevorga mahkamlangan stoykalar va ularga tayanuvchi bir va ikki oraliqli ramalar bilan va stoykalarga sharnirli bog'langan stropil konstruksiyalar bilan ta'minlanadi.

Karkasning fazoviy bikrligi maxsus gorizonta va vertika bog'lanishlar yordamida amalga oshiriladi.

Poydevorlar stakan shaklida bo'lib, quyma temirbetondan ishlanadi. Poydevor to'voni minus 1,650 chuqurlikda o'rnatiladi. Poydevor tepasi minus 0,150 m belgida olinadi.

Poydevor to'voni o'lchamlari quydagicha qabul qilingan: chetki qatordagi asosiy yuk ko'taruvchi ustun ostiga 24 m oraliq uchun - 2,1 m x 2,7 m, 18 m oraliq uchun - 1,8 m x 2,4 m; o'rta qator ustun ostiga - 2,4 m x 3,6 m ; bo'ylama deformatsion chok yo'nalishdagi yonma yon (parra shaklida) joylashgan ustunlar ostiga - 2,4 m x 3,6 m, ko'ndalang deformatsion chok yo'nalishdagi yonma yon (parra shaklida) joylashgan ustunlar ostiga - 3,6 m x 2,7 m , 3,6 m x 3,6 m i 3,0 m x 2,4 m, yon tomondagi faxverk stoykasi ostiga- 1,8 m x 1,8 m, ichki faxverk stoykalari ostiga- 1,5 m x 1,5 m.

Poydevor to'sinlari I.415-I seriya bo'yicha qabul qilingan. Ular trapetsiya shaklidagi kesimga ega. Poydevor to'sinining yuqori belgisi minus 0,030. Poydevor to'sinlari temirbeton poydevor zinasiga tayanadi. Poydevor gidroizolyasiyasi issiq bitumni surtish orqali amalga oshiriladi. Osma panel va poydevor to'sini orasida gorizonta yo'nalishda joylashgan sement-qum qorishmasidan iborat bo'lgan gidroizolyasiya qatlami mavjud.

Asosiy yuk ko'taruvchi ustunlar I.424.1 - 5 seriyaga ega bo'lib, ular 2K108-4-S va 9K108-5-S-1 markada, shuningdek I.423-3 seriyada quydagicha markada: K 72-2. Poydevor stakaniga ustunlarni kirish chuqurligi 1050 mm.

Faxverkli ustunlar I.427.1-3 seriyaga ega bo'lib, quydagicha markada ishlangan: 4KF 72-3, 4KF84-4, 8KF133-4, 8KF139-5, 6KF 105-3.

Ustunlarni o‘zaro bog‘lagichlari 1.424.1-5 seriyaga ega bo‘lib, SV-136, SV-147, SV-197, SV-200 markada bajarilgan.

Yuk ko‘taruvchi yopma konstruksiyalari uzunligi 24 m bo‘lgan temirbeton segmentli ferma (PK-01-129/78 seriya va 3FS24-4K7 markali) va uzunligi 12 m bo‘lgan stropila to‘sinini (I.462-3seriya va IBDR 12 -4V marka) dan iborat.

Stropila konstruksiyalari bo‘yicha bog‘lagichlar 1.463-13s seriyaga ega bo‘lib, quyidagicha markalarda bo‘ladi: VS-127, VS-128, VS-140, VS-129, VS-131, GS-145, GS-149, S-123.

Qurilish tumani seysmikligi 8 ball bo‘lganda ustunlarni o‘zaro bog‘lash №4 sxemaga asosan bajariladi. Ustunni poydevor stakaniga mahkamlash mayda to‘ldiruvchiga ega bo‘lgan, kamida V 15 sinfli beton bilan bog‘lovchi ustunlar uchun esa kamida V 22,5 sinfli beton bilan bajarilishi kerak.

Seysmikligi 8 ball bo‘lgan binoning bo‘ylama yo‘nalishdagi ustunlari ustidagi stropil ferma tayanch qismlariga vertikal bog‘lagichlar o‘rnatiladi. Ushbu ustunlar ustki qismi esa tirgak bilan mahkamlanadi. Bino yopmasining fonar ostki qismi ham tirgaklar bilan mustahkamlanadi.

Kran osti to‘sinlari I.426.2-7 seriya bo‘yicha qabul qilinib, B6-I-I markaga ega. To‘sinlarning balandligi 500 mm. Kran osti relslarini mahkamlanishi KR-70 ko‘ra GOST 24741-81 asosan bajariladi. Rels ustki qismi 8,15 m belgida joylashgan.

Osma devor panellari yengil betondan I.030.1-1/88 seriya bo‘yicha PS 63.12.3,0-2L, PS 60.12.3,0-2L, PS 63.15.3,0-2L, PS 60.15.3,0-2L, PS 63.18.3,0-2L, PS 60.18.3,0-2L markalarda ishlangan. Panel devorlari orasidagi tirqishlarni markasi M50 bo‘lgan sementli qorishma bilan to‘ldiriladi.

Yopma plitalar GOST 22701.1-77** bo‘yicha qobirg‘ali qilib, PG-3AIVT markada qabul qilingan. Barcha plitalar E-42A elektrod yordamida uch tomonidan payvand qilinadi. Plitalar orasidagi bo‘ylama chok MK-1 armatura karkasi bilan jihozlanadi. So‘ng chok V 15 sinfli beton bilan to‘ldiriladi.

Bino tomi og‘ma qilinadi. Tom qoplamasi tarkibi: pardan himoya qatlami, qalinligi 100 mm bo‘lgan penobeton plitalardan iborat issiqdan himoya qatlami, qalinligi 20 mm bo‘lgan qum–sement qorishmasi, uch qavatli ruberoid gilami va mastikali graviy qatlami.

Oqava suvlarning tomdan ketishi ichki tomonga bo‘lib, 20 ta voronka orqali amalga oshiriladi. Voronkalar orasidagi masofa 12 – 42 m. Binoning perimetri bo‘ylab yong‘in vaqtida evakuatsiya qilinadigan narvonlar 100 m interval oralig‘ida joylashtiriladi. Bundan tashqari fonarga ko‘tarilish va quyi sathdan yuqori sathga ko‘tarilish uchun mo‘ljallangan narvonlar mavjud.

Yorug'lik aeratsiya fonarlari I.464 – 11/80 seriyada qabul qilingan. Fonar o'rta oraliqning ustida joylashgan bo'lib, uning balandligi 2,4 m. Fonar oynalarining balandligi yorug'lik texnikasi hisobi asosida qabul qilinadi.


To'siqlar I.030.9-2 seriya bo'yicha PG 60.18-2-T, PG 60-15-2-T, PG 60.30-2-T-D1 markada bo'ladi. Ular temirbeton ustunlarga mahkamlanadi.



Pollar barcha xonalar uchun bir xil bo'ladi. Pol qatlamlari: zamin – asos grunti, tayyorlovchi qatlam – qalinligi 200 mm bo'lgan V15 sinfli beton, oraliq qatlam – qalinligi 40 mm bo'lgan M200 markali qum–sment qorishmasi, yopma - qalinligi 25 mm bo'lgan dekorativ beton.




Deraza o'rinlari lenta shaklida bo'ladi. Quyi yarus balandligi 4,2 m, yuqori yarus esa -1,8 m. Deraza ikki qavatli oynadan ishlanadi.


Darvoza Vr 4,9x5,4 markada 259-75 shifrlı bo'lib, uning balandligi 5,4 m va eni 4,8m.

Bir kavatli sanoat binosi uchun konstruktiv elementlarni tanlash

№	Ko'rinishi	O'lchamlari (mm)	Marka va seriyasi
1		Chetki qator uchun: 1500x 1800 mm O'rta qator uchun: 2100x 1800mm Faxverkasi uchun: 1500x1500 mm	FV 1-6 FV 7-12 FA 1-6

2	Ustun o'rta qator uchun 	H=11800m h=4200mm a=800 mm b=400 mm c=600 mm	I 424.1-5 2K108-4-c va 9K108-s- c-1
3	Ustun chetki qatorlar uchun 	H=11800m h=4200mm a=800 mm b=500 mm c=600 mm	
4	Kran osti to'sini	L=12000 mm H= 900 mm b=300 mm c=400 mm	

			
5	Stropila to'sini BDR 	L=18000 mm H=1390 mm h= 890 mm	Seriya: 1.462-3
6	Devor panellari 	h=1800 mm l=6000 mm b= 300 mm	
7	Tom yopmalari	b=3000 mm l=6000 mm h=400 mm	

			
--	---	--	--

Bosh tarh

Qurilish maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklga ega bo'lib, uning tarhdagi o'lchami 36m x 72 m. Qurilish hududining umumiy maydoni 2,47 Ga tashkil etadi.

Qurilish hududida quyidagi ob'yektlar mavjud: temir beton buyumlari zavodi, ma'muriy maishiy bino, boshqarma binosi, garaj, omborxonalar, sport maydonlari, sport maydonchalari qoshidagi yuvinish va xojatxonalar, dam olish maydoni, avto ulovlar to'xtash joyi, qorovulxona.

Sanoat binosi hududiga kirish qorovulxona orqali amalga oshiriladi. Vagon ta'mirlash depo oldi tomonida gul va ko'kalamzorlashtirilgan maydoncha mavjud. Qorovulxonadan zavodga qarab harakatlanish yo'lida ma'muriy–maishiy bino bor bo'lib, uning tarzi markaziy maydonga yo'naltirilgan.

Hududdagi barcha bo'sh maydonlar ko'kalamzorlashtirilgan. Boshqaruv binosi orqa tomonida suv xavzasi bo'lib, u dam olish hududidagi mikroiklimni yaxshilashga va yong'inga qarshi maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Ishchilarning dam olib hordiq chiqarishi uchun depo hududida sport maydonchalari mavjud.

Bosh tarhning texnik–iqtisodiy ko'rsatkichlari

№	Nomlanishi	Maydoni (m ²)
1	Muassasa maydoni	3456
2	Qurilish maydoni	24700
3	Yo'l va yo'laklar maydoni	5204
4	Ko'kalamzor maydonlar	16031

Bosh tarx eksplikatsiya

№	Nomlanishi	Maydoni (m ²)
1	Sanoat binosi	2592
2	Ma'muriy - maishiy bino	864
3	Boshqarma binosi	120
4	Yopiq ombor	432
5	Sport maydoni	1125
6	Avtomobil turar joyi	150
7	Qorovulxona	20

Sanoat binosining hajmiy–rejaviy yechimi

Zavod binosi bir qavatli va ikki oraliqli qilib loyihalangan. Uning ikki oralig'ining eni 18 m ni tashkil etadi, o'rta va chetki qator ustunlarining qadami 6 m.

Stropil konstruksiyalarning pastki qismigacha bo'lgan balandlik: oralig'i 6 m uchun 10,8 m, oraliq eni 18 m uchun esa teng bo'lgan oraliqlar yuk ko'tarish qobiliyati 10t bo'lgan ko'priqli kranlar bilan jihozlanadi. Kran relsining tepasigacha bo'lgan balandlik 8,15 m ni tashkil etadi.

Asosiy maydonda – (o'rta oraliqda) temir beton buyumlari ishlab chiqarish sexi joylashgan. U 4 ta relisli kirish darvozasiga egadir

18m oralig'da quvirlar ishlab chiqarish bo'limi joylashgan. Yana binoning ushbu kirish tomonidan quvurlarni tekshirish bo'limi ham mavjud.

Binoning keyingi yon tomonidan kelinsa tayyorlash bo'limi mavjud bo'lib u qolgan ikki bo'limdan alohida qilib o'rta devor bilan ajratilgan.

Shuningdek keyingi 18m lik oraliqda “agregat-oqimli ihlab chiqarish bo'limi hamda “armatura tayyorlash bo'limi” metall ombori joylashgan bo'lib ular ikki darvoza bilan bog'lanib chiqish va kirish mumkin.

Tom qoplamasi uzunligi bo'yicha parapet panellari va metall panjaradan iborat to'siqlarga ega.

Sanoat binosining fasadi lenta shaklida joylashgan panellar va ikki yarusdan iborat lentasimon oyna qoplapamasidan iborat. Birinchi yarusning balandligi 4,2 m, ikkinchisi esa 1,8 m. O'rta oraliqda oyna qoplamali fonar joylashgan bo'lib, uning balandligi 2,4 m. Oyna o'lchamlari yorug'lik texnikasi hisobidan aniqlanadi.

Binoni tashqi pardozi quydagicha qabul qilamiz. Paneli devorlarning tashqi tomoni sementli qorishma yordamida qoplanib, och yashil va feruza rangli silakat bo'yoq yordamida bo'yaladi. Binoning sokol qismi och jigarrang silikatli bo'yoq

yordamida bo‘yaladi. Oyna romlari moyli bo‘yoq yordamida och kulrang qilib, darvoza esa och jigarrang silikatli bo‘yoq yordamida bo‘yaladi.

Sanoat binosi pollari barcha xonalar uchun bir xil bo‘ladi. Pol qatlamlari: zamin – asos grunti, tayyorlovchi qatlam –qalinligi 200 mm bo‘lgan V15 sinfli beton, oraliq qatlam – qalinligi 40 mm bo‘lgan M200 markali qum–sement qorishmasi, yopma - qalinligi 25 mm bo‘lgan dekorativ beton.

Sanoat binosining texnik - iqtisodiy ko‘rsatkichlari

№	Nomlanishi	Maydoni m ²
1	Qurilish maydoni	2592
2	Umumiy maydon	2598,48
3	Qurilish xajmi	36378,7
4	K ₁	0,98
5	K ₂	13,99

Arxitektura-qurilish qismi Loyihalash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar

Qurilish tumani tavsifi II.1. jadvalda keltirilgan

Jadval II.1

Tavsif nomi	Qiymati va o‘lchami	Manbaa
1. Qurilish joyi	Buxoro	[topshiriqdan]
2. Iqlimiy tuman	I B*	[1]
3. Eng issiq oyning o‘rtacha maksimal harorati	28,6 ⁰ S*	[1]
4. Eng sovuq oyning o‘rtacha minimal harorati	-4,8 ⁰ S*	[1]
5. Zamin gruntlari	supes	[topshiriqdan]
6. Grunt muzlashiining me’yoriy chuqurligi	80 sm dan ko‘proq*	[1]
7. Grunt osti suvlarining agressivlik darajasi va chuqurligi	Agressiv emas, 2,6 m	[topshiriqdan]
8. Qor qoplami og‘irligining me’yoriy qiymati	0,4 KPa*	[2]
9. Shamol bosimining me’yoriy	0,39 kPa*	[2]

qiymati		
10. Qurilish tumani seysmikligi	7 ₁ *	[3]
11. Qurilish maydoni seysmikligi	8*	

Sanoat binosiga qo'yiladigan sanitar-gigiyenik talablar

№	Tavsifnoma	Qiymati va o'lchami	Manbaa
1.	Binoning sanitar sinfi	IV	[15,81b]
2.	Talab etilgan yoritish turi	Tabiiy yoritish usuli	[11,12§]
3.	Jahon qutblari bo'yicha binoni mumkin bo'lgan joylashtirish yo'nalishi	Janubiy-sharq	[12,21§]
4.	Himoya chizig'ining eni	100m	[16]

1.5. Ma'muriy-maishiy binoni loyixalash

1. Joylashuvi ma'muriy-maishiy binolarni zavodga qarashli bo'lgan bo'lakdan ish joyigacha bo'lgan yo'nalishda joylashtiriladi. Asosiy me'moriy fazoviy kompozitsiyasi deb, ba'zi ishlab-chiqarish jarayonlarini ro'y berayotgan xonalarini, yordamchi texnologik jarayonlarni, hamda maishiy xonalarni bir binoga texnologik jarayonlardan kelib chiqqan holda binolarga bo'lib joylashtirishga aytiladi.

Ma'muriy-maishiy binolarning maxsus transportlari kirishi qulay bulishi kerak. Ishlab chiqarish inshootlarining oshxonalari shimol, shimoli-sharq yoki shimoli-g'arbga yo'naltirish, ovqatlantirish zallarini esa Janub, Janubi-G'arbga qarab joylashishi maqsadga muvofiqdir.

2. Ma'muriy-maishiy binolarning hisob-kitobi.

MMB tarkibiga garderoob bloki, tibbiyot punkti, majlislar zali, tsex boshliqlarining xonasi, ustalar va texnik nazorat xonasi va hokazolardan iborat bo'ladi.

Ishchilarning doimiy bo'ladigan ma'muriy xonalarni 200-280li gorizontal sektoriga yo'naltirish tavsiya etilmaydi.

Garderoob bloki, dush va dush oldi garderoobi, xojatxona garderoobi va bo'linmalari soni ishlab chiqarish jarayonlarining guruxiga qarab aniqlanadi. Garderoblarning sonini barcha smenadagi ishchilar soniga qarab teng miqdorda qabul qilamiz. Ko'cha va uy kiyimlari uchun shkaf o'lchamlari shu shaharning iqlimiy holatiga bog'liq bo'ladi. Maxsus uy kiyimlari uchun shkaflar o'lchami

maxsus kiyimlar tarkibiga bog'liq bo'ladi. Dush setkalari soni ish smenasining eng ko'p qismi va ishlab chiqarish jarayonining guruhlar soniga qarab bolinadi.

Dush kabinalari 3 tomondan to'silgan ochiq cabinet sifatida jihozlanadi.

Dush kabinalarining o'lchamlari (0,9x0,9)m ni tashkil qiladi.

Dushda uy va ko'cha kiyimlari uchun garderoab joylashtiriladi.

Maxsus kiyim garderoabi tomonidan dushga daxliz tomonidan kiriladi. Yuvinish joyidagi kranlar soni eng ko'p smenada ishlayotgan ishchilar soni bilan hisoblab olinadi.

1.5.1. Ma'muriy-maishiy binoning hajmiy-rejaviy yechimi

MMB aloxida turuvchi ob'yekt sifatida loyihalaniib, sanoat binosi bilan umumiy uzunligi 12 m va eni 9 m bo'lgan isitiladigan usti yopiq yo'lak orqali bog'langan. Yo'lak sanoat binosiga tutashtiriladi. Bino ikki qavatli qilib loyihalangan. O'qlardagi binoning o'lchami 33m x 18m. Qavat balandligi 3,3 m. Ustunlar to'ri 6m x 6m. MMB ro'yxat bo'yicha ishlovchilar soniga qarab loyihalangan A=200 kishi; eng ko'p smenadagi ishchilar soni B=130 kishi. Ayollar foizi – 30%. Sanitar tavsifga ko'ra ishlab chiqarish jarayonida qatnashgan ishchilar foizi I_b – 100%.

MMB dagi xonalarni 6 ta asosiy guruhga ajratish mumkun: sanitariya, maishiy xonalar, jamoat ovqatlanish xonalari, sog'liqni saqlash, madaniy ma'rifiy xonalar, boshqaruv xonalari va konstruktorlik byurolari, axborot texnik xonalar.

Boshliq xonasi ikkinchi qavatda shunaqa loyihalanganki u joyga shovqin kam yetib boradi va hamma ma'rifiy xonalar bilan bog'liqlik juda qulay tarzda joylashtirilgan. Ikkinchi qavatda ham ayollar ham erkaklar uchun alohida xojatxonalar loyihalangan. Bo'ylama yo'nalishdagi binoning bikrligi to'la holda joylashgan metall bog'lovchilar va temirbeton rigellar yordamida ta'minlanadi. Fermaning pastki belbog'i bo'yicha ikkinchi qavatda o'ziga tovushni yutadigan ilinib turadigan ship loyihalangan.

Bino fasadining ma'muriy-badiiy yechimi, yuqori sifatli pardozlovchi materiallar va turli xildagi ranglarni qo'llashga asoslangan.

Asosiy ishlab chiqarish va maishiy bino xonalarining interyerlari, ya'ni ichki ko'rinishlari sanoat korxonasida ishlayotgan ishchilarni mehnat qilishlari va dam olishlari uchun optimal sharoit yaratishdan kelib chiqib, xonalarni pardozlashdagi ranglarni tanlash, ularni, qanday maqsadlarda foydalanishi va joylanilishidan kelib chiqib, texnologik uskunalarni ranglarini tanlash esa, GOST lardan kelib chiqib ish joylari va dam olish joylarini dekorativ ko'kalamzorlashtirish, sun'iy yoritishlardan kelib chiqib tanlanadi.

Ma'muriy - maishiy binoning sanitar - gigiyenik jixozlari

10-jadval

Ishlab chiqarish jarayonlar guruhi	Ishlovchilar soni				Jihozlar soni															
	Jami		Max. smenada		Garderobdagi shkaflar soni				Dush kataklari		O'rin-Diqlar		Umival-niklar		Unitazlar		Pis-suarlar	Oyoq vannalari		
					250X250		300x300		E	A	E	A	E	A	E	A	E	A		
№	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A		
	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	
I _b	140	60	91	39	140	60	140	60	19	8	19	8	5	2	6	4	2	2	1	

Ma'muriy va maishiy xonalarni maydonini hisoblash.

11-jadval

№	Xonalarning nomlanishi	O'lchov birligi	Soni	Maydon bo'yicha qiymati, m ²	Maydoni, me'yor bo'yicha, m ²
1	2	3	4	5	6
I	Garderob bo'limi				
1	Garderob xonasi E A	A	140 60	0.78	109.2 46.8
2	Garderob yonidagi kiyim tarqatish xonasi E A	B	91 39	0.1	9.1 3.9
3	Maxsus kiyimlar omborxonasi E A	B	91 39	0.04	3.64 1.56
4	Omborxonadan oldingi maxsus kiyimlar uchun qo'shimcha joy E A	B	91 39	0.1	9.1 3.9
5	Garderob xodimlari uchun xona E A	B	91 39	0.04	3.64 1.56
6	Dushxonalar E A		19 8	3	57 24
7	Dush oldidagi xonalar E A		19 8	0.7	13.3 5.6
8	Yuvunish xonasi E A	B	91 39	0.5	45.5 19.5
9	Xojatxona E A		91 39	0.3	27.3 11.7

10	Vestibyl yechinish xonasi va ro'yxatga olish xonasi				18
11	Chekish xonasi	A	140 60	0.15	21 9
II	Sog'liqni saqlash bo'limi				
12	Shifokor xonasi				18
13	Oyoq uchun vanna	B	91 39	0.02	1.82 0.78
14	Qo'l uchun vanna	A	140 60	0.01	1.4 0.6
15	Ingalyatsiya xonasi				12
16	Ayollar shaxsiy gigiyena xonasi				12
17	Psixologik muolaja xonasi				18
III	Ovqatlanish bo'limi				
18	Bufet				36
19	Ovqatlanish xonasi	A			24
IV	Ma'daniy ma'rifiy jamoat bo'limi				
20	Majlislar zali				24
21	Ijtimoiy tashkilotlar xonasi				12
22	Dam olish xonasi				30
V	Ma'muriy va axborot texnologiya bo'limi				
23	Xavfsizlikni saqlash xonasi	—	—	—	12
24	Punkt boshlig'i xonasi	—	—	—	12
25	Almashinuvchi muxandis xonasi				18
26	Ustaxonasi				18
27	Laboratoriya				16
28	Mehnat muhofazasi xonasi				18
29	Kasaba uyushma xonasi				18
VI	Xona maydonlari yig'indisi 747				
	Qo'shimcha xonalar $\sum S \times 25\% = 747 \times 0.25 = 187$				
30	Korridorlar				100
31	Tamburlar				87

Ma'muriy-maishiy binoning enini 18m deb qabul qilsak, uning uzunligi quyidagicha topiladi.

$$a = \frac{S}{b} = \frac{934}{18} = 52m$$

Demak, qabul qilamiz MMB binoyimiz ikki qavatli jami uzunlik 52m, MMBning o'qlar o'lchami 18m x 33m

Vestibyl kirish eshigidan Sanoat binosiga bevosita o'tish yo'li ko'zda tutilgan. Birinchi qavatda: ayollar kiyimxonasi, oshxona, sog'liqni saqlash bo'limi, xojatxonalar, kiyimxonalar loyihalangan. Kiyimxonalardagi ustki va ko'cha kiyimlari uchun shkaflar 250x500 mm o'lchamda, maxsus joma uchun esa – 330x500 mm qilib ishlanadi.

Kiyimxonalar markazida dushxonalar loyihalanadi. Maxsus joma uchun kiyimxona markazidagi dushxonaga kirish tambur orqali amalga oshiriladi. Dushxonadan ustki va ko'cha kiyimlari kiyimxonasiga chiqish dusholdi xonalari orqali amalga oshiriladi. Kiyimxonada shuningdek, xojatxona, kiyim ombori va kiyim tarqatish joyi, kiyimxona xizmatchilari uchun xona joylashgan.

Feldsherlik tibbiyot punktit sexga o'tish yo'lagi yaqinida joylashgan. Tibbiyot punktining barcha xonalari tabiiy yoritishga ega bo'lib MMB xonalaridan ajratilgan. Tibbiyot xonasi tashqariga chiqish eshigiga ega bo'lib, bu maxsus transport kelishi uchun imkon yaratadi.

Oshxona 200 kishiga mo'ljallanib loyihalangan. Oshxona vestibulida sut tarqatish xonasi tashkil etilgan. Oshxona mustaqil tashqariga chiqish eshigiga ega bo'lib, ishchi xizmatchilarning chiqishi va tashqaridan maxsulotlarni qabul qilish imkonini beradi. Oshxonaning barcha xonalari tabiiy yoritishga ega. MMBda “toza” va “toza bo'lmagan” oqimlarni ajratish mumkin. Bu esa ikkita zina katagini loyihalash orqali amalga oshiriladi.

Binoning ikkinchi qavatida (3.300 m belgida) ayollar kiyimxonasi tepasida erkaklar kiyimxonasi joylashgan. Shuningdek, ikkinchi qavatda: majlislar zali, laboratoriya, Jamoat tashkilotlari xonasi, mehnat muxofazasi xonasi, dam olish xonasi, xojatxona mavjud.

MMB va Sanoat binosi oralig'idagi o'tish yo'lagida ayollar va erkaklar xojatxonasi, bet va qo'l yuvish xonasi bor.

Bino tarzini ko'rkamlashtirish maqsadida turli rangdagi devor panellaridan foydalanilgan. Bino panellarinig asosiy qismi och yashil rang bo'lsa, uning markazi feruza rangida ishlangan. Kirish eshigi tepasida naves mavjud.

Ma'muriy-maishiy bino TIK

12-Jadval

№	Nomlanishi	Maydoni (m ²)
1	Qurilish maydoni	760
2	Umumiy maydon	820
3	Qurilish hajmi	4560
4	K ₁	0.061
5	K ₂	8.57

1.5.2. Ma'muriy maishiy binoning konstruktiv yechimi

MMB I.020.1 -2S seriyada to'liq temirbeton karkasdan qilib ishlangan. Ustunlar to'ri 6 m x 6 m. qavat balandligi 3,3 m.

Poydevorlar ustun ostiga o'rnatilib, ularning seriyasi I.020.1-1/83 va markasi 2F18.9-2. Ustunlar ikki qavatga mo'ljallangan bo'lib, kesimi 400 mm x 400 mm. Poydevor markasi KB 33.77 -1.

Rigel kesimining balandligi 450 mm va markasi 2R 4.53-2-S, RP 4.53-I-S, BL 5,57-S.

Orayopma plitalar va yopma plitalar seriyasi I.041.1-2 va markasi PK 56.15 – 4AtVT, PK 56.12 – 4 At IVST, PK 56.15-4AT IVST-3.

Devor panellari qalinligi 300 mm bo'lib, engil betondan ishlangan. Ularning seriyasi I.030.1-1 va markalari PS 60.6.3,0-L, PS 60.15.3,0 –L.

Zina temirbeton Z-ko'rinishdagi elementlardan loyihalangan bo'lib, markalari LMP 57.11.14-5-3S, LMP 57.11.17-5-S.

Tom yopmasi rulonli hisoblanadi. Oqava suvlarning tomdan ketishi ichki tomonga yo'nalgan. Deraza tavaqalari yog'ochdan bo'ladi. Uning o'lchamlari 1,8m x 1,8m. Pollar xonalarning vazifastiga ko'ra: kiyimxonada, tibbiyot punktida, oshxonada, ma'muriyat xonalarida – linoleum asosida; dush xonalarda, xojatxonalarda – keramik plitka asosida; majlislar zalida, mehnatni muxofaza qilish xonasida, dam olish xonasida – parket asosidagi pollar qabul qilinadi.

XISOB - KONSTRUKTIV QISMI

Hisoblash uchun berilgan ma'lumotlar

Og'ir beton sinfi – B40

$R_b=22 \text{ Mpa}$; $R_{bt}=1.4 \text{ Mpa}$; $R_b=22*0.9=19.8 \text{ Mpa}$; $R_{bt}=1.4*0.9=1.26 \text{ Mpa}$;
 $R_{b,ser}=29 \text{ Mpa}$; $R_{bt,ser}=2.1 \text{ Mpa}$; $E_b=32.5*10^3 \text{ Mpa}$; ish sharoiti foifitsenti $\gamma_{b2}=0.9$.

Tortilgan armaturalarni bo'sharib yuborilgan holatdagi betonning mustaxkamligi: $R_{bp}=0.8*L=0.8*40=32 \text{ Mpa}$. Bunda quyidagi qiymatlar **B20 va B30 sinfli oralig'da interpolyatsiya yo'li bilan olinadi (6)**

$R_{bp,ser}=16.2 \text{ Mpa}$; $R_{bt,p,ser}=1.54 \text{ Mpa}$; $E_b=26.4 \text{ Mpa}$.

Tarnglanadigan armatura sinifi A_T-IV ($R_s=680 \text{ Mpa}$; $R_{s,ser}=785 \text{ Mpa}$; $E_s=19*10^4 \text{ Mpa}$)

Oddiy armaturalar sinifi A-III ($R_s=365 \text{ Mpa}$ diametri 10...40mm li sterjnlr uchun: $R_s=355 \text{ Mpa}$; $R_{sw}=285 \text{ Mpa}$ diametri 6...8mm li sterjnlr uchun; $E_s=20*10^4 \text{ Mpa}$); **A-I** ($R_s=225 \text{ Mpa}$; $R_{sw}=175 \text{ Mpa}$) va B-I ($R_s=360 \text{ Mpa}$; $E_s=17*10^4 \text{ Mpa}$)

Taranglangan armaturada hosil bo'ladigan kuchlanish

Kuchlanish miqdori quyidagi shartga ko'ra aniqlanadi [1] $\sigma_{sp}+P<R_{s,ser}$ bunda

$$\sigma_{sp} = \frac{R_s}{\gamma_s} = \frac{590}{1.05} = 560 \text{ Mpa} \quad \sigma_{sp} = 560 \text{ Mpa} \text{ qabul qilib olamiz.}$$

Balkaga tushadigan yuklarni hisoblash

To'sinni hisobiy uzunligi (2) formula bo'yicha topiladi.

$$l_0=18-2*0.04-2*0.13=17.7\text{m}$$

To'singa tasir etuvchi yuklar hisobi 1-jadvadvalda keltirilgan

9-jadval

No	Yuk turlari	Me'yoriy yuk kH/m ²	Yuk bo'yicha koeffitsent (γ_f)	Hisobiy yuk kH/m ²
1	Doimiy yuklar:			
	Atmosfera tasiridan himoya qiladigan qatlam (3 qavat ruberoid):	0.1	1.1	0.11
	sement qorishmasi ($\delta=15\text{mm}$, $\rho=18\text{kH/m}^3$):	0.27	2	0.32
	Issiqlik ta'siridan himoya qiladigan qatlam ($\delta=10\text{mm}$; $\rho=5\text{kn/m}^2$):	0.5	1.2	0.60
		0.05	1	0.06
	Bug' ta'siridan himoya qatlami:	1.57	1	1.73
	Tom yopmasidan qovurg'ali temir beton plitadan (6x3m):			

2	Jami vaqtinchalik yukdan: Qor og'irligidan:	2.49		2.82
		0.7	1.4	0.98
3	Umumiy yuk miqdori:	3.19		3.8

To'sinni 1m uzunligiga tushadigan yuk qiymatini aniqlash:

To'liq yuklarni me'yoriy qiymati: $q_n = 3.19 \cdot 6 + 5.12 = 24.26$ kH/m;

Uzoq muddatli tasir etuvchi yuklarni qiymati: $q_{nl} = 2.49 \cdot 6 + 5.12 = 20.06$ kH/m;

